

## ONA TILI TA'LIMIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARINING 5-9-SINF DARSЛИKLARDAGI TAHLILI

*To'raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna*

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.d. (DSc)*

*e-mail: [turaboyeva@gmail.com](mailto:turaboyeva@gmail.com)*

**Annotatsiya:** maqolada tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarining ilmiyotodik asoslari, bugungi ona tili ta'limida uning tutgan o'рни, mavjud darsliklarda tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanishning joriy holati tahlil qilinga, umumlashtirilgan, taklif va tavsiyalar ilgani surilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, darslik, ona tili ta'limi asoslari, uzviylik, uzluksizlik, mashq, tafakkur, ong, topshiriqlar, tafakkurni rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar, bilim, ko'nikma va malaka.

## АНАЛИЗ ЗАДАЧ ПО РАЗВИТИЮ МЫШЛЕНИЯ В УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЯХ 5-9 КЛАССОВ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

*Турабоева Мукаддас Якубджановна,*

*Наманганский государственный педагогический института,*

*доцент доктор педагогических наук*

*e-mail: [turaboyeva@gmail.com](mailto:turaboyeva@gmail.com)*

**Аннотация:** В статье анализируются и обобщаются научно-методические основы развивающих мышление учебных заданий, их роль в современном образовании на родном языке, современное состояние использования развивающих мышление упражнений в существующих учебниках, даются предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** система образования, учебник, основы обучения на родном языке, связность, преемственность, упражнение, мышление, сознание, задания, упражнения и задачи, развивающие мышление, знания, умения и компетенции.

## ANALYSIS OF THINKING-DEVELOPING TEACHING TASKS IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION IN GRADES 5-9

*Turaboeva Mukaddas Yakubjanovna,*

*Associate Professor, PhD (DSc) of Namangan State Pedagogical Institute*

*e-mail: [turaboyeva@gmail.com](mailto:turaboyeva@gmail.com)*

**Annotation:** the article analyzes and summarizes the scientific and methodological foundations of thinking-developing teaching tasks, their role in today's mother tongue

*education, the current state of use of thinking-developing exercises in existing textbooks, and makes suggestions and recommendations.*

**Keywords:** *education system, textbook, basics of mother tongue education, coherence, continuity, exercise, thinking, consciousness, tasks, thinking-developing exercises and tasks, knowledge, skills and qualifications.*

## KIRISH

Bugun umumiy o'rta ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash, o'quvchini hayotga tayyorlash, ona tili mashg'ulotlari asosida turli nutq vaziyatlariga mos nutqiy kompetensiyani rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib turibdi. Biroq 5–9-sinflar kesimida uzviylikni ta'minlagan holda o'quvchini fikrlashga o'rgatish, tafakkurni rivojdantiruvchi o'quv topshiriqlari tizimini yaratish ham dolzarb bo'lib turibdi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko'rilmogda. Jumladan, I. Davronov ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

F.I.Buslayev shunday yozadi: "birinchi va eng muhimi, nutq shakllari bilan ifodalanadigan narsalarni tushunish va ularni to'g'ri yo'l bilan ishlatishdan iborat amaliy qobiliyatni rivojlantirishdir, ya'ni o'qimishli odamlar aytganidek, og'zaki va yozma mashqlar orqali o'quvchida suhbat va yozuvga xos nutq shakllarini osonlik bilan tushunish ko'nikmasini hosil qilamiz". "Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezonini uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz".

Alijon Hamroyev o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishda vuyidagi topshiriqlarni qo'llaydi: "Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish. O'qituvchi dars mashg'ulotini muammoli savolni o'rta tashlash bilan boshlaydi: 1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz? 2. Oltita unli va harf ishtirok etgan so'z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko'ring, qanday o'zgarishlarni sezayapsiz? 3. Undosh tovushlarning talaffuz etib ko'ring. Shovqin ovozdan hosil bo'lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo'lgan undoshlarni alohida yozing. Agar topshiriqlarni bajarish muayyan qiyinchilik tug'dirsagina, namuna ko'rsatadi". Mazkur yondashuv ham tafakkurni rivojlantiruvchi hisoblanadi.

MDH davlatlari olimlari F.Gonobolin, V.Kabakin, N.Kuz'mina, G.Suxobskaya, Y.Osipova va V.Tamarinlarning tadqiqotlarida o'qituvchining tafakkur tezligi va uning o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalar yoritib berilgan. N.Anisimova, L.Treyder. Yu.Kornilov, Yu.Kulyutkin, B.Teplov, O.Tixomirov, D.Cemodanova kabi olimlar tomonidan amaliy va kasbiy tafakkurni rivojlantirishning mexanizmlari bayon etilgan.

Xorijli olimlardan G.Ayzenk, J.Piaje, D.Poya, G.Kreyg, B.Kleg, Dayana Xalperlar tomonidan intellekt va tafakkurni rivojlantirish muammolari bo'yicha testlar tizimi ishlab chiqilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

2022-yilda nashr qilingan 7-sinf "Ona tili" darsligida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan, hatta rukn ham ajratilgan. "O'qing va mulohaza qiling" ruknida o'quvchilarga tafakkur qilish bo'yicha turli topshiriqlar berilgan:

Zamona qahramonlari sifatida turli kasblarga doir ma'lumotlar va suratlar keltirilib, oxirida savollar beriladi:

1. Berilgan soha vakillaridan qay biri siz uchun zamonamiz qahramoni bo'la oladi? Nega shunday hisoblaysiz?
2. Ayting-chi, zamonamiz qahramonlari qaysi fazilati yoki ishlariga qarab belgilanishi kerak?
3. Nima deb o'ylaysiz, bizga qahramonlar nega kerak?
4. Sizningcha, yurtimizga, jamiyatimizga qanday qahramonlar kerak?

5. Berilgan soha vakillaridan tashqari yana kimlarni qahramon deb hisoblaysiz? Ularning ismini bilasizmi? Nega ularni qahramon sanaysiz?

O'quv topshiriqlari savolga asoslandimi, demak o'quvchilar tafakkur qilishni, o'ylashni boshlaydi. G'. Hamroyevning ta'kidlashiga ko'ra savol o'zbek tili ta'limida o'quv topshirig'i sifatida alohida ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilmagan.

Jumladan, uning "Savol ham o'quv topshirig'i hisoblanib, ona tili ta'limida hali alohida tadqiq etilmagan. Uning ona tili o'qitish metodikasida qanday ahamiyat kasb etishi, vazifasi, turlari, tasnifi, qo'llanilish o'rinlari va tarkibi o'rganilmagan. Mezonlari ishlab chiqilmagan. Metodik qo'llanmalarda, darsliklarda topshiriqlar bilan birga qo'llaniladi, ko'pincha, topshiriq bilan almashtiriladi, topshiriqning tarkibiga kiritib yuboriladi. Aslida metodikada savolning o'z o'ri va vazifasi bor. U topshiriqdan aniq farq qiladi. Ba'zan topshiriq bilan bir xil vazifalarni bajarishi mumkin, ammo bu bir narsa degani emas. Amaldagi darsliklarda ba'zan "Savol va topshiriqlar" rukni ostida faqat savollar beriladi. Bu – mazkur tushunchaning mazmun mohiyatini yondosh tushunchalarga nisbatan farqlab olish zarurligini ko'rsatadi. Savolning turlari tasnif qilinmaydi, degan fikrida asos bor.

Darhaqiqat, Savol masalasida ham shunday tasniflar qilinishi, ularning qo'llanilish o'rinlari belgilab olinishi zarur. Zero, ijtimoiy hayotda ham savol muhim ahamiyatga egadir. Javob savolning qanday berilganiga bog'liq. Demak, o'quvchilarga to'g'ri, o'rinli va maqsadli savol bera olsak, ularning bergan javobi jamiyat taraqqiyoti uchun qaysidir ma'noda foydali bo'ladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Shu o'rinda savol nima o'zi, degan savolga ham javob izlash, uni ilmiy-metodik tekshirib ko'rish zarurati paydo bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida savolga shunday ta'rif va tavsif berilgan: SAVOL – [a. – so'roq; iltimos] 1 Javob olish uchun aytiladigan gap, jumla; so'roq. – [Vasila Nazarovna:] Sen mening savolimga javob ber, kim u? O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. – Juda yaxshi savol! – dedi Ibrohimov, – qani, bu savolga kim javob beradi? A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Savol alomati – esk. So'roq belgisi. Savol alomati hamma vaqt "mi" dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. A. Qahhor, Adabiyot muallimi. Etti og'ayni ham ko'kda nogahon Savol alomati bo'lib ko'ringay. A. Oripov.

2. Imtihon biletida yozib qo'yilgan, javob berish lozim bo'lgan mavzular nomi yoki mashq, masala. Ikkinchi qatorga borib o'tirganidan keyin mashinkada yozilgan savollarni o'qidi: – 1. Joul - Lens qonuni. 2. Rezonans. Uchinchi savol elektromagnit maydoni haqidagi masala edi. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. 3 Echilishi lozim bo'lgan masala, muammo. Bugungi yig'ilishimizda ikkita savolni hal qilishimiz lozim. Gazetadan.

Muloqot davomida odatda savollarga to'g'ri javob bergani uchun o'quvchilarga rag'bat yoki noto'g'ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Darsda o'quvchini savol berishga undash mumkinmi, ko'p hollarda bunga e'tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. O'quvchilar tomonidan o'qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag'batlantirilmaydi. Ona tili mashg'ulotlarida va boshqa fanlarda ham o'quvchilar, asosan, javob beruvchidir. Aslida o'quvchiga ko'proq savol berishni o'rgatish lozim. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog'liq bo'ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so'rash qobiliyati bilan ham belgilanadi.

O'quvchilarda to'g'ri va mantiqli savol bera olish ko'nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to'g'ri qaror qabul qiladigan fikrlovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Bu borada g'arb pedagogikasi mo'tadillik, amaliylik va erishuvchanlik tamoyillariga tayanadi.

Hayotda ham pedagogikada ham savolning vazifasi biri-ikkinchisidan unchalik uzoq emas. Biroq ona tili o'qitish metodikasi ta'limning boshqa sohalariga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadi. Uning bu boradagi pedagogik yuki o'quvchi shaxsini fikrlashga o'rgatish, bilimlarini sinash, ko'nikmasini tekshirish kabilar bilan belgilanadi.

Darslikda "Qutub yulduzi" nutqiy mavzusi asosida ham o'quvchiga bir qator savollar berilganki, bular tafakkuni rivojlantrishga xizmat qiladi: 1. Birinchi rasmda nimalar tasvirlangan? Tushunganlaringizni so'zlab bering. 2. Qutb yulduzi haqida nimalarni bilasiz? 3. Ikkinchi rasmda nimalar tasvirlangan? Dunyo tomonlari qanday nomlanadi? 4. Quyoshning chiqish va botish nuqtasi qayer? 5. Sizningcha, dunyo tomonlarini bilish nima uchun kerak?

Bundan tashqari Paulo Koelo tarjimai holiga doir ma'lumot, matnga berilagan savol va topshiriqlar ham o'quvchini darajama-daraja rivojlantiradi, ayni paytda tafakkur qilishga undaydi:

Men uchun ikki buyuk inson bo'lgan. Qo'shiqchi Jon Lennon hamda yozuvchi Xorxe Luis Borxes. Bolaligimda yozuvchi Borxes bilan uchrashishni juda-juda orzu qilar edim. Oxir-oqibat bu buyuk inson bilan uchrashish uchun avtobusga o'tirib, Rio de Janeyrodan Argentinaga yo'l oldim. Menga berilgan manzil bo'yicha keldim. Adib uyi qarshisidagi mehmonxona hovlisida, kursida o'tirardi. Men unga yaqinroq bordim. U bilan suhbatlashish uchun ikki kecha-kunduz yo'l bosib, bu yerga kelgandim. Ammo uning salobati tufayli bo'lsa kerak, mum tishlab qoldim. O'z-o'zimga "Men o'z yo'lchi yulduzim bilan yuzma-yuz turibman. Yulduzlar esa hech qachon gapirmaydilar. Ular bilan pinhona gaplashish mumkin", deb taskin berdim. (Paulo Koelo)

O'quvchiga matn asosida mulohazaga, fikrlab ko'rishga undaydigan savol va topshiriqlar berilgan:

1. Birinchi matndagi hikoya qahramoni kim? 2. Birinchi hikoya qahramoni Xorxe Luis Borxes bilan nima maqsadda uchrashishga qaror qildi? 3. Birinchi matnda ajratib ko'rsatilgan jumlaning izohlang. Undagi iboradan yana qanday vaziyatda foydalanish mumkinligi haqida o'ylab ko'ring. 4. Birinchi hikoya qahramonining o'ziga taskin bergan jumlasini qayta o'qing. Nima uchun u izlab borgan odamini o'zining "yo'lchi yulduzi" deb atayotganini tushuntirishga harakat qiling. 5. Ikkinchi matn qahramonining oilasi haqida sizda qanday tasavvur uyg'ondi? 6. Nima deb o'ylaysiz, biror kitob yoki jurnalni o'qib chiqqanligi haqida boshqalarga maqtanish yaxshimi? Siz ham shunday qilganmisiz? Bunday paytda inson o'zini qanday his qiladi? 7. Ikkinchi matnda ajratib ko'rsatilgan iborani izohlang. 8. Ikkinchi hikoya qahramoni qaysi kasblarni egalladi? Bunga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman, yangi mazmunda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadi bilan tuzilayotgan zamonaviy darsliklarda asosiy masala sifatida o'quvchi tafakkurini rivojlantirishga urg'u berilgan, savollar va topshiriqlar imkon qadar shunga yo'naltirilgan. Tafakkurni rivojlantirish masalasi har bir nutqiy mavzuga asos

bo'luvchi matnlar ostidagi savol va topshiriqlarda uzluksiz aks etib borgan, biroq tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlarga e'tibor qaratilmagan. Umuman, darslikda matnlar bilan ishlash uchun qulay bo'lgani sababli savollardan unumli foydalanilgan, tadqiqotlar ona tili mashg'ulotlari ayrim ko'nikmalarni mashqlar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar asosida 5-9-sinflarda ona tili ta'limining uzviyligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулий масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. – 188-193- б.
2. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.дри.(PhD) дисс. -Самарқанд. 2019. 147 б.
3. Буслаев Ф.И О преподавании отечественного языка. 2-е изд. М., 1867. (переизд.: Л., 1941).
4. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
5. Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш: пед. фан. док. (Dsc) ... дисс. –Тошкент, 2020. –242 б.
6. Ҳамроев Ғ. Она тили таълимида ўқув топшириқлари тузиш методикаси. – Тошкент. Донишманд зиё. 2021. 154 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2004. – 569 б.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.